



BO‘LAJAK BIOLOGIYA O‘QITUVCHISINING KASBIY- METODIK TAYYORGARLIGIGA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY TALABLAR

Ergasheva G.S.

Nizomiy nomidagi TDPU

Biologiya va uni o‘qitish metodikasi kafedrası professori, p.f.d. (DSc)

Tayanch so‘zlar: ta‘lim, biologiya o‘qituvchisi, shaxs, metodik tayyorgarlik, shaxsiy fazilatlar, individuallik, psixologik xususiyatlar.

Ключевые слова: образование, учитель биологии, личность, методическая подготовка, личностные качества, индивидуальность, психологические особенности.

Key words: education, biology teacher, personality, methodological training, personal qualities, individuality, psychological characteristics.

Dunyoda ta‘lim sivilizatsiyasi va insoniyatning yaxlit barqaror taraqqiyoti negizida bilim olishdan faoliyatli-kompetentli ta‘lim paradigmasiga o‘tish, jamiyat rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalariga mos, raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan talabni tobora oshib borishiga olib keldi. Globallashuv kontekstida oliy ta‘lim sifati mamlakatning barqaror raqobatbardoshligini ta‘minlab beradi va “ta‘lim sifatini baholash jarayoni va vocitalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”[1], bo‘ljak biologiya o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida “biologiya yo‘nalishlarida samarali o‘quv jarayonini tashkil etish” [2], muammosi alohida dolzarblik kasb etdi.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimini xalqaro ta‘lim standartlari bilan uyg‘unlashtirish, oliy ta‘lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta‘minlash, jahon amaliyotiga asoslangan oliy ta‘lim tizimining sifat darajasini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimiga pedagogik loyihalashtirish jarayonini keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Zero, «mamlakatimizda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo‘nalishlarda ta‘lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish «Ilm,

ma‘rifat va raqamli iqtisodiyot yili» Davlat dasturining ustuvor vazifalari qatorida belgilangan.” [3].

Respublikamizning pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida biologiya ta‘limini zamonaviy talablar acocida tashkil etish va mazmunan yangilash, uzluksiz ta‘lim tizimining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda metodik tayyorgarligini orttirish jamiyat talablarining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi

Ushbu dolzarb vazifalarni amalga oshirish biologiya o‘qitish metodikasi yo‘nalishida:

bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligi mezonlarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish;

metodik tayyorgarligini belgilovchi darajalarni elektron ta‘lim muhiti sharoitlarida axborot-kompetentsiyaviy yondashuv asosida boyitish;

bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga yo‘naltirilgan jahon ta‘lim resurslari, zamonaviy axborot resurs markazlari ma‘lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;

bo‘lajak biologiya o‘qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning kontseptual, refleksiv, integrativ komponentlarini o‘z ichiga olgan mexanizm ishlab chiqish;

biologiya o‘qituvchilari metodik tayyorgarligini takomillashtirishning axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion-pedagogik texnologiyaga asoslangan o‘quv-metodik ta‘minoti, mul’timediali elektron ta‘lim resurslari yaratish lozim.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili asosida bizningcha o‘qituvchining shaxsiy xususiyatlarini metodik tayyorgarlik nuqtai nazaridan uchta guruhga ajratish mumkin:

1) shaxsiy fazilatlar (bolalar bilan ishlash ehtiyoji; madaniy dunyoqarash, ishda qat‘iyatlilik; pedagogik yo‘naltirish, mobillik, yangilikka intilish, pedagogik taktika; o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik);

2) o‘quv faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sifatlar (fanni bilish; bilim, ko‘nikma va malakalar sifatini baholash qobiliyati; ishni rejalashtirish qobiliyati, fikrlashni rivojlantirish, qiziqishni shakllantirish, rejani samarali bajarish ko‘nikmasi, fanlararo aloqalarni amalga oshirish, individual yondashish, o‘quv mehnati ko‘nikmalarini shakllantirish; bilimlar; o‘qitishning psixologik-pedagogik asoslariga oid bilimlar);

3) o‘qituvchining tarbiyaviy ishi bilan aloqador sifatlar.

O.M.Shiyan pedagog shaxsining tarkibiy tuzilishida uch guruh asosiy sifatlarni ajratadi: ijtimoiy va umumshaxsiy (g‘oyaviylik, fuqarolik, axloqiylik, pedagogik yo‘naltirilganlik va estetik madaniyat); kasbiy-pedagogik (mutaxassislik bo‘yicha



nazariy va metodik tayyorgarlik, kasbiy faoliyatga psixologik-pedagogik tayyorlik (nazariy), amaliy ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish); bilish jarayonlarning individual xususiyatlari va ularning pedagogik yo'naltirilganligi (pedagogik kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira va boshqalar), hissiy sezgirlik, irodaviy fazilatlar, temperamentning o'ziga xosligi, salomatlik holati [4, 65-b.].

Pedagogik faoliyat jarayonida o'qituvchi o'quvchi bilan hamkorlikda quyidagi vazifalarni amalga oshirishi zarur: tashhislash, rag'batlantirish, axborot berish, baholash [5; 48-b.].

Shuningdek, pedagogda boshqa odamning ichki dunyosini tushunish qobiliyati (empatiyaning kognitiv tomoni) va hatto uning his-tuyg'ulariga kirib borish, ularga javob berish va boshqa odam bilan hamdardlik (empatiyaning hissiy tomoni) qobiliyatidan shakllanadi. Yana biri bu boshqa odamning dunyosini aks ettirish qobiliyatidir. Uchinchisi, talabalar faoliyatini boshqarish uchun turli xil metod va uslublarni tanlash qobiliyati [6; 2-b.].

Tadqiqotchilar o'qituvchi shaxsining shunday kasbiy-pedagogik sifatlarini ko'rib chiqadi, pedagogik eruditsiya, maqsadga yo'naltirish, amaliy yo'naltirilganlik va tashhisli fikrlash, sezgi, improvizatsiya, kuzatuvchanlik, zukkolik, farosat va bashorat kabi fazilatlarini ko'rib chiqadilar (N.Muslimov, A.Xoliqov).

Shaxsning eng muhim xususiyatlari - bu faollik, individuallik, kreativlik, refleksivlik, yo'nalish. Nima uchun ularni faollashtirish zarur? N.Muslimov va boshqalarning fikriga ko'ra, u shaxsda tashqi va ichki harakatlantiruvchi kuchlar bilan bog'liq qanday munosabatlarning yotishiga xos bo'ladi [7; 23-b.].

Atrofdagi dunyo bilan o'zaro aloqada, shaxs faol boshlovchi sifatida yuzaga chiqadi. Faollik - ijtimoiy tan olingan, maqsadga yo'naltirilgan hatti-harakatlar, ijtimoiy foydali o'zgarishlar natijasi.

K.A. Abulxanova-Slavskaya faollik tushunchasini "uning hayot yo'llari bilan bog'liq bo'lgan uning yaxlit va ajralmas va vaqt qiymatini hisobga olgan holda tashkil etilgan maxsus oliy shaxsiy ta'lim" deb ta'riflaydi. Faollikni bunday tushunish shaxsiy sifatini sub'ektning hayot yo'lini va hayotning mohiyati va kontseptsiyasi, hayotiy pozitsiyasini shakllantirishda namoyon bo'ladi. Faollik bu odam uchun odatiy bo'lib, hayotiy ehtiyojlarni aks ettirish, ifoda etish va qondirish uchun umumlantirilgan, qiymatga asoslangan usuldir" [8;24-s.].

Shuni ta'kidlash joizki, bo'lajak o'qituvchining metodik kompetentligini shakllantirish talabaning shaxsiy faolligini rivojlantirmasdan amalga oshirilmasligi juda muhimdir, chunki shaxs faolligi yordamida inson nafaqat atrofidagi dunyoni va o'zini o'rganadi, balki kasb olamiga, madaniyat olamiga kirib boradi va uni boyitadi hamda o'zgartiradi. Faollik, o'qituvchining shaxsiyatining eng muhim

xususiyati bo‘lib, uning kasbiy faoliyat sub‘ekti sifatida yuzaga chiqishi, o‘ziga va mehnatga ijodiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

C.L. Rubinshteynning qarashiga ko‘ra, shaxs - barcha tashqi ta‘sirlarni qaytarishga qodir ichki sharoitlar yig‘indisi bilan aloqador birlikdir [9; 46-b.]. Aynan shu ichki sharoitlar individuallik asosini tashkil qiladi. “Individuallik” tushunchasi muayyan shaxsning muhim xususiyati bo‘lib, uning mustaqil faoliyati sub‘ekti sifatida bo‘lish uslubini ifodalaydi [10; 5-b.]. Individuallik insonda va uning ijodida bebahodir [11]; bu insonning tabiiy potentsialining kuchidir [12; 34-b.]; to‘liq ma‘noda shaxs bu o‘z hayotining subekti yoki muallifidir [13; 59-b.]; bu inson shaxsiyatining namoyon bo‘lish shakli [14; 84-b.], u barcha qila oladigan narsalarni bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi, ammo hammadan yaxshiroq va barcha uchun ishlashning yangi etaloni o‘rnatadi [15; 33-b.].

Individuallik odamlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida amalga oshiriladi, shuning uchun shaxsning individualligi, uning o‘ziga xosligi insonning xatti-harakatlari va atrofda olam bilan o‘zaro munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning individualligi hamkorlikdagi faoliyati guruh rivojlanishining ma‘lum bir darajasi uchun xarakterli bo‘lgan birgalikdagi sub‘ektiv faoliyat va muloqot sharoitida sezilarli darajada o‘zgaradi [16; 18-b.]. Bu shuni anglatadiki, o‘qituvchining shaxsi faqat pedagogik jamoada, ijodiy pedagogik o‘zaro munosabatlar jarayonida shakllanishi mumkin, buning asosida o‘quv jarayoni sub‘ektlari o‘rtasidagi munosabatlarning yangi xususiyati vujudga keladi va pedagogik kasbga nisbatan qadriyat munosabati rivojlanadi.

N.Muslimovning fikricha, o‘qituvchi shaxsining yana bir o‘ziga xos xususiyati shaxsning ijodiy boshlanishi bilan bog‘liq kreativlik hisoblanadi [7; 18-b.].

A.N.Kuziaymedov va R.G.Gabdraxmanovalarning ta‘kidlashicha, kreativlik - bu hayratga tushish va bilish qobiliyati, nostandart vaziyatlarda yechim topish qobiliyati, bu yangiliklarni kashf etish va tajribani chuqur anglash qobiliyatidir [17; 735-b.].

“Kreativlik” atamasi individning yangilik yaratish xususiyatini aks ettiradigan qobiliyatini anglatadi. Kreativlik–inson ruhiyatining integrativ sifati bo‘lib, shaxs faoliyatida mahsuldor tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradigan, shaxs faoliyatida samarali o‘zgarishlarni ta‘minlaydi. Kreativ shaxs boshqa odamlardan bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi: 1) kognitiv (subsensitiv ta‘sir etuvchilarga yuqori sezgirlik; g‘ayrioddiylikka, noyoblikka, yagonalikka sezgirlik; hodisalarni har tomonlama, muayyan tizimda idrok etish qobiliyati; noyob voqealarni eslab qolish; tasavvur va fantaziya rivojlanganligi; bitta muammo yechimini hal qilishda ko‘plab umumlashtirish strategiyasi qo‘llash orqali divergent fikrlashning rivojlangan bo‘lishi va boshqalar); 2) hissiy (yuqori



hissiy qo'zg'aluvchanlik, bezovtalik holatini yengish, stenik hissiyotlarning mavjudligi); 3) motivatsion (tushunish, izlanish, o'z-o'zini ifoda etish va o'zini tasdiqlash zarurati, avtonomiya va mustaqillik zarurati); 4) kommunikativ (tashabbuskorlik, yetakchilikka moyillik, spontanlik) [18; 120-b; 19; 378-b.].

Talabani yetuk mutaxassis bo'lib shakllanishida uning nafakat tegishli kasbiy bilimni mukammal egallashi, balki yanada muhimrog'i, ushbu bilimdan ijodiy foydalana olishi, o'z tanlagan soxasi bo'yicha ishchi xodim oldiga qo'yiladigan standart topshiriqlarni bajarishdan tashkari ijodiy faoliyatga qodir bo'lishi hal kiluvchi ahamiyatga egadir.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetentli yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish sohasida Sh.R.Urakov [20; 46-b.] ilmiy izlanishlari ahamiyatga molik.

Biologiya o'qitish metodikasini takomillashtirish sohasida J.O.Tolipova tomonidan biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti tadqiq etilgan, biroq, kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish muammosi alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan [21; 45-b.].

G.S.Ergasheva ilmiy izlanishlarida biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish muammosi amaliy yechimini topgan. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilari tayanch va kasbiy-sohaviy kompetentsiyalari tarkibining elektron muhitda faol axborot almashinish, loyihalash faoliyatiga yo'naltirish hamda interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish komponentlari aniqlashtirilgan, metodik tuzilmasi, pedagogik kasbiy tayyorgarlik ko'nikmalarini baholashning diagnostik apparati takomillashtirilgan, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida interaktiv dasturiy vositalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirishning maqsad, mazmun, texnologik va refleksiv-baholash komponentlariga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan [22; 212-b.]. Biroq, kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo'lajak biologiya o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi o'rganilmagan.

A.K.Raximov tadqiqoti oliy ta'lim muassasalarida "Evolyutsion ta'limot" fanini o'qitish misolida talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan, kompetentsiyaviy yondashuvning umumiy xususiyatlari, xususiy biologik kompetentsiyalarni rivojlantirish metodikasi bayon etilgan, biroq, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kompetentsiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish muammosi yoritilmagan [23; 62-b.].

Har qanday mutaxassisning kasbiy faoliyati (yuqori darajadagi mutaxassislik bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lsa ham) psixologik bilimlarni egallashni talab etadi. Ta'lim tizimida shaxs tarbiyasi, sub'ektning o'quv va kasbiy faoliyatga tayyorgarligini shakllantirish, ta'lim jarayoniga yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quv-tarbiya jarayonini sifatli psixologik ta'minotisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Kasbiy faoliyatda samarali natijalarga erishish uchun psixologiya asoslariga tayangan holda shaxsiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish lozim [24; 392-b; 25; 53-b.].

Bo'lajak mutaxassisning psixologik tayyorgarligi kasbiy yetuklikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – yaxlit shaxsiy ta'limning tizimli komponenti sifatida bo'lajak mutaxassisning psixologik madaniyatini shakllantirishdan iborat [26; 6-b.].

Shaxsning psixologik madaniyati ta'limning murakkab tizimi sifatida o'zida o'zaro bog'langan uchta komponentni: intellektual (kognitiv), regulativ-amaliy (axloqiy) va mohiyatli-qadrli (ma'naviy-axloqiy) mujassamlashtiradi [27; 60-b.].

Shaxs nafaqat hayotining ba'zi daqiqalarida yashaydi, balki doimiy ravishda o'z faoliyati natijalarini baholaydi, o'z hayotini tahlil qiladi, o'rganadi, ya'ni fikrlaydi. Refleksivlik shaxsni bilish va o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi. Refleksivlikni rivojlanish darajasi qobiliyat sifatida unga – “Men” ideal, Men-boshqalar nazarida, Men-boshqalar uchun “o'zligini” tushunishga yordam beradi. Refleksivlik insonda o'z faoliyatiga tanqidiy nazar bilan qarash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish, turli qarashlar doirasida o'z aksini ko'ra olish kabi muhim sifatlarni shakllantirishga yordam beradi, xulq-atvor, adekvat vaziyatlar va yo'nalishlarda o'z shaxsini shakllantirishga imkon beradi [28].

L.N. Orlova o'qituvchi shaxsida rivojlantirish lozim bo'lgan muhim integral xususiyatlar sifatida pedagogik yo'naltirganlik, pedagogik kompetentlik, hissiy moslashuvchanlikni ta'kidlaydi [29].

F.B.Kevbrinning [30; 57-b.] fikriga ko'ra, moyilliklar, motivlar, maqsadlar, ma'nolarning nisbati insonning ma'lum bir kasbiy yo'nalishini - kasbni egallash, maxsus tayyorgarlik ko'rish, muvaffaqiyatga erishish, ma'lum bir ijtimoiy maqomga ega bo'lish va boshqalarga imkon yaratadi.

Tanlagan kasbini egallashda sub'ektning motivatsiyasiz yo'naltirilganligi agar o'qituvchi yetarlicha rivojlangan intellekt va ijodiy faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lsa ham, kasbiy tayyorgarlikning samaradorligi past bo'ladi.

Shunday qilib, pedagogik va psixologik tadqiqotlar tahlili natijasida bo'lajak biologiya o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda ma'lum pedagogik va psixologik jihatlarga e'tibor berish, unda bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish zarur.



Adabiyotlar:

1. Incheon declaration/ Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). - 48 p.
2. Oz'bekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 avgustdagi PQ-4805-son «Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2020 y., 07/20/4805/1174-son.
3. «Ilm, ma'rifati va raqamli iqtisodiyot yili» Davlat dasturi // <https://strategy.uz/index.php?news=850>
4. Шиян О.М. Аутопедагогическая компетентность учителя // Педагогика. 1999, №1. – С.63-68.
5. Таможняя, Е. А. Система методической подготовки учителя географии в педагогическом вузе в условиях модернизации образования. [Электронный ресурс]: автореф. дисс. ... д. п. н. – Москва, 2010. – С. 48. –
6. Мафатов О. Темная сторона эмпатии. Почему сопереживание само по себе не делает лучше нас, ни окружающий мир.// <https://knife.media/dark-empathy/>.
7. Muslimov N.A. va boshkalar. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: «Fan va texnologiya» nashrieti, 2013.
8. Абульханова-Славская К.А. Психология и сознание личности (Проблемы методологии, теории и исследования реальной личности: Избранные психологические труды). - М.: Московский психолого-социальный институт; Воронеж: Издательство НПО «МОДЭК», 1999. – 224 с.
9. Рубинштейн С.Л. Избранные философско-психологические труды. — М.: Наука, 1997.– 461 с.
10. Юдин А.И. Технологическое проектирование педагогического процесса. Автореф. докт. пед. наук. – М.: 2009. – 45 с.
11. Арбузова Е.Н. Инновационная концепция рефлексивной системы обучения бакалавров и магистрантов методике обучения биологии. С. 6-13. // <https://books.google.co.uz/books?id=y9BXDAAAQBAJ&pg=PA13&lpq=PA-13&dq=pedagogicheskie+psixologicheski+osnovni+metodic+heskie+podg>
12. Ильин Е.П. Психология, творчества, креативности, одарённости. –СПб.: Питер. 2009., –434 с.
13. Романов К.М. Психологическая культура: проблемы и перспективы исследования // психологическая культура человека: Теория и практика: материалы научной конф., 27-28 февраля 2012 г., – Саранск, 2012, – С. 58-76.
14. Слободчиков В.И., Исаев Е.И. Психология человека: Введение в психологию субъективности: Учебное пособие для вузов. –М.: “Школа-Пресс”, 1995. –384 с.
15. Холстед, М.Ю. Ключевые компетенции в системе оценки Великобритании // Современные подходы к компетентностно-ориентированному образованию: Материалы семинара / М.Ю. Холстед, Т. Орджи; Под ред. А.В. Великановой.– Самара, 2001.– 227 с.
16. Дьяченко Е.А. Творческое мышление в структуре профессио-нальной подготовки студентов бакалавриата по направлению «Психология» : Автореф. дис канд. психол. наук. – СПб.: ЛГУ. 2010 . – 22 с.
17. Khuziakhmetov, A. N. & Gabdrakhmanova, R. G. (2016). Creativity in Joint Activity of Teacher and Student in the Learning Process. IEJME-Mathematics Education, 11(4), – P. 735- 745.
18. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.X., Sayfurov D.M., Turaev A.B. - Toshkent, 2015. –120 b.
19. Петрова Е.Б. Профессионально направленная методическая система подготовки по физике студентов естественнонаучных специальностей педагогических вузов: дисс. докт. пед. наук: 13.00.02.- Москва, 2010.– 378 с.
20. Urakov Sh.R. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashning kompetent yondashuvga asoslangan pedagogik tizimini takomillashtirish. Avtoref. diss. (PhD). – SamDU. Samarqand–2018. – 46 b.



21. Tolipova J.O. Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgarligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti. Avtoref. dis. ped. fan. doktori. – T.: TDPU, 2006. – 45 b.
22. Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. Diss.dokt. ped nauk. (DSc). Toshkent.O'zMU-2018. 32c.
23. Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ("Evolyusion ta'limot" fanini o'qitish misolida) Avtoref. dis. ped. fan. doktori. - T.: TDPU, 2019y. - 62 b.
24. Компетентностный подход в педагогическом образовании [Текст] /под ред. В. А. Козырева, Н. Ф. Радионовой, А. П. Тряпицной. – СПб.: Изд-во РГПУ им. А. И. Герцена, 2005. – 392 с.
25. Романова О. В. Формирование профессиональной компетентности учителя химии в условиях информатизации образования. – Ростов н/Д. : ИПО ЮФУ, 2011. –153 с.
26. Колмагорова Л.С. Диагностика психологической культуры школьников: практическое пособие для школьных психологов / – Москва: Изд-во ВЛАДОС-ПРЕСС, 2002. – 360 с.
27. Романов К.М. Психологическая культура: проблемы и перспективы исследования // психологическая культура человека: Теория и практика: материалы научной конф., 27-28 февраля 2012 г., – Саранск, 2012, – С. 58-76.
28. Матфатов О. Темная сторона эмпатии. Почему сопереживание само по себе не делает лучше нас, ни окружающий мир.// <https://knife.media/dark-empathy/>.
29. Орлова Л.Н. Система методической подготовки учителей биологии в педагогическом вузе : Дис. ... д-ра пед. наук : 13.00.02. Омск, 2005. 382 с. РГБ ОД, 71:06-13/25
30. Кевбрин, Б. Ф. Психологическая подготовка студентов как основа профессионализма будущих специалистов / Б. Ф. Кевбрин, П. В. Новиков // Интеграция образования. – 2015. – Т. 19, № 1. – С. 53–59.

РЕЗЮМЕ

Maqolada zamonaviy ta'lim taraqqiyoti sharoitida bo'lajak biologiya o'qituvchisi shaxsini rivojlantirishning pedagogik aspektlari yoritilgan. Biologiya o'qitish metodikasi yo'nalishida pedagog kadrlar tayyorlashning dolzarb muammolari va vazifalar tizimi tahlil etilgan. Bo'lajak o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini metodik tayyorgarlik nuqtai nazaridan: shaxsiy fazilatlar, o'quv faoliyati bilan bog'liq sifatlar va tarbiyaviy faoliyati mazmuni bilan uyg'un tavsiflangan. Bo'lajak biologiya o'qituvchisi shaxsini rivojlantirish kasbiy-metodik tayyorgarlik muhim jihati sifatida tadqiq etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье освещены педагогические аспекты развития личности будущего учителя биологии в условиях современного развития образования. Анализируются современные проблемы и система задач подготовки педагогических кадров в области методики преподавания биологии. С точки зрения методической подготовки личностные характеристики будущего учителя описываются в гармонии с содержанием личностных качеств, связанных с учебной деятельностью и учебной деятельностью. Исследовано развитие личности будущего учителя биологии как важный аспект профессионально-методической подготовки.

SUMMARY

The article highlights the pedagogical aspects of the personality development of a future biology teacher in the conditions of modern development of education. Modern problems and the system of tasks for training teachers in the field of biology teaching methods are analyzed. From the point of view of methodological training, the personal characteristics of the future teacher are described in harmony with the content of personal qualities, qualities related to educational activities and educational activities. The development of the personality of a future biology teacher has been studied as an important aspect of professional and methodological training.